

AGROBIZNES, FAN VA TEXNOLOGIYALAR

ILMIY-AMALIY
ELEKTRON
JURNALI

Агробизнес, наука и технологии

Agribusiness, science and technology

№ 083688



ISSN:
3060-5245



Toshkent-2026

Platform & workflow by
OJS / PKP

BOSH MUHARRIR

Oblomurov Nazullo Naimovich – i.f.d. (DSc), professor.

Bosh muharrir o'rinbosarlari:

Islamov Soxib Yaxshibekovich – q.x.f.d. (DSc), professor.

Sultonov Kamoliddin Sadriddinovich – q.x.f.d. (DSc), professor.

Farmonov To'liqin Xayitmurodovich – i.f.d. (DSc), professor.

Muharrir:

Beglayev Uchqun Xurramovich – i.f.f.d. (PhD), dotsent.

Tahrir hay'atining xalqaro a'zolari:

Kusainov Xalel Xaymullayevich – i.f.d. professor (Qozog'iston davlat texnologiya universiteti)

Vilija Aleknevičienė – i.f.d. professor (Universitet Vitovta Velikogo)

Gilbert Ludwig – professor, (Jamk University of Applied Sciences)

Bobojonov Ixtiyor Baxtiyorovich – i.f.d. professor (Germaniyaning Leybnits nomidagi Markaziy Osiyoda qishloq xo'jaligini rivojlantirish instituti (IAMO))

Daiva Makutenene – professor, (Vilniaus Magnus universiteti, Litva)

Xaitboyeva Nargiza Alikulovna – i.f.d. dotsent (Tojikiston davlat huquq, biznes va siyosat universiteti)

Tahrir hay'ati:**08.00.00-Iqtisodiyot fanlari:**

Gulyamov Saidasror Saidaxmedovich – i.f.d. (DSc), professor;

Saidov Muxammad-Ali Xakimovich – i.f.d. (DSc), professor;

Rustamova Iroda Baxramjanovna – i.f.d. (DSc), professor;

Ochilov Ilhom Sayitqulovich – i.f.d. (DSc), professor;

Askarov Nazimjon Niyozovich – i.f.d. (DSc), professor;

Abdullayev Altinbek Yangibayevich – i.f.d. (DSc), professor;

Boltayev Abror Sayitmuradovich – i.f.d. (DSc), dotsent;

Abduvasikov Abduaziz Abdulazizovich – i.f.n. professor;

Mamadiyarov Dilshad Uralovich – i.f.n. dotsent;

Achilov Mashrab Ulug'bekovich – i.f.f.d. (PhD), dotsent;

Galimova Feryuza Rafikovna – i.f.n. dotsent;

Odilova Dilnozaxon Barnayevna – i.f.f.d. (PhD), dotsent;

Yangiboyev Dilshod G'ulomovich – i.f.f.d. (PhD);

Saidova Dildora Nurmatovna – i.f.n. dotsent;

Dexkanova Nilufar Sagdullayevna – i.f.f.d. (PhD), dotsent;

Roziqov Jahongir Mustaqim o'g'li – i.f.f.d. (PhD), dotsent;

Boltayev Nurali Shiramatovich – i.f.f.d. (PhD), dotsent;

Ibragimova Madina Ismoilovna – i.f.f.d. (PhD), dotsent;

Javlijev Nuriddin Bektemir o'g'li – i.f.f.d. (PhD).

06.00.00-Qishloq xo'jaligi fanlari:

Shokirov Alisher Djuraboyevich – q.x.f.d. (DSc), professor;

Mardanov Husniddin Xolbozorovich – q.x.f.d. (DSc);

Abdiyev Fozil Rashidovich – q.x.f.d. (DSc);

Sattorov Maqsud Axtamovich – q.x.f.d. (DSc);

Yuldashov Nurbek Ergashovich – v.f.d. (DSc);

Xalmirzayev Dilmurad Kamilovich – q.x.f.d. (DSc), dotsent;

Namazov Ixtiyor Choriyevich – q.x.f.d. (DSc), professor;

Xudayqulov Jonibek Bozarovich – q.x.f.d. (DSc), professor;

Eshonqulov Jamoliddin Saporboy o'g'li – q.x.f.d. (DSc), professor;

Abdullayev Anvar Kodirullayevich – b.f.n., katta ilmiy xodim;

Atabayev Ma'ruf Maxmudovich – q.x.f.n. professor;

Safarov Asqar Asadullayevich – q.x.f.f.d. (PhD), dotsent;

Mustafakulov Davron Mamatqulovich – q.x.f.f.d. (PhD), dotsent;

Kasimov Botir Sadriddinovich – q.x.f.f.d. (PhD);

Akramov Umidilla Ikramdjanovich – q.x.f.n. dotsent;

Elboboyev Abdug'ani Shuxrat o'g'li – q.x.f.f.d. (PhD);

Muxammadov Yo'ldoshbek Akmal o'g'li – q.x.f.f.d. (PhD);

Maxmudova Shaxnoza Abdufattaxovna – q.x.f.f.d. (PhD), dotsent;

Idrisov Xusanjon Abdujabborovich – q.x.f.f.d. (PhD), dotsent.

MUASSIS

Toshkent davlat agrar
universiteti

ALOQA UCHUN MA'LUMOTLAR

Manzil: Toshkent viloyati, Qibray
tumani, Universitet ko'chasi, 2-uy.

Jurnalning telegram manzili:

t.me/agrobiznes_elektronjurnal

E-mail: licht-1989@mail.ru

Jurnalning rasmiy sayti:

<https://www.agrobiznesjournal.uz>

Tel: +(998) 93 439 30 00

JURNALNING ILMIYLIGI:

Ma'lumot uchun, OAK
Rayosatining 30.11.2024-yildagi
№364/5-sonli qarori bilan
08.00.00-Iqtisodiyot fanlari
bo'yicha, 08.05.2025-yildagi
№370/5-sonli qarori bilan
06.00.00-Qishloq xo'jaligi fanlari
bo'yicha "Dissertatsiyalar asosiy
ilmiy natijalarini chop etish
tavsiya etilgan milliy ilmiy
nashrlar ro'yxati"ga kiritilgan.

Elektron nashr, 276-sahifa.
2026-yil, sentabr.



MUNDARIJA

IQTISODIYOT FANLARI

КУРПАЯНИДИ КОНСТАНТИН ИВАНОВИЧ

Стратегии цифровой трансформации в Европейском союзе и потенциал институционального трансфера Французского опыта в Узбекистан.....11

ERGASHEV RUSTAM RAJABOVICH

Ilmiy ishlanmalar asosida Spin-off korxonalarini tashkil etish va rivojlantirishning bosqichli boshqaruv modeli.....25

ABDURAXMANOVA MUQADDAS TOXTASINOVNA

Temir yo'l transporti korxonalarida ekologik-iqtisodiy samaradorlikni oshirishning ilg'or mexanizmlari.....34

ABDULLAYEV ILYOS AXMADOVICH, JABBOROV JAMOLIDDIN MUXAMMADJON O'G'LI

Surxondaryo viloyatida demografik jarayonlarning statistik tahlili.....44

XASANOV SANJARBEK ABDUMANNOBOVICH

Sanoat korxonalarida raqamli transformatsiya darajasini baholash uslubiyoti ("Farg'onaazot" AJ misolida).....50

ABDURAZAKOVA NARGIZA RIXSIBAYEVNA

Aksiyadorlik jamiyatlarida xususiy kapital rentabelligiga ta'sir etuvchi omillar: O'zbekistonning uchta aksiyadorlik jamiyati misolida panel tahlil.....57

SULTANOVA ZUXRA JAKSILIKOVNA

Qaraqalpaqstan Respublikasida region ekonomikasini rivojlantirishda IT park xizmatini amalga oshirish masalalari ham paydalanilgan mumkinliklari.....69

ERGASHEV G'YOS BAXROM O'G'LI

Mamlakat qishloq xo'jaligi mahsulotlari eksportining yalpi ichki mahsulotdagi ulushini oshirish zarurati.....76

URMANOVA UMIDA XAKIMDJANOVNA

Sanoat tarmoqlariga investitsiyalarni jalb etish holati va rivojlanish tendensiyalari.....87

SHAMSIDDINOVA DILNOZA SHAVKAT QIZI

O'zbekiston chirm poyabzal korxonalarida milliy brend qiymatini oshirishning marketing mexanizmlarini takomillashtirish.....97

MUSAYEV OZODJON SHAVKAT O'G'LI

Mehnat resurslarini boshqarishning zamonaviy usullari va ularning iqtisodiy samaradorligi.....106

XALIKCHAYEVA SADOKAT

Qum-shag'al mahsulotlarini realizatsiya qilishda soliq bazasini aniqlash metodologiyasi "Minimal narx" mexanizmining tatbiq chegaralarini takomillashtirish masalalari.....113

XUSANOV SHUXRAT BURXANOVICH

Moliyaviy hisobotlarni qalbakiylashtirish xavfi ko'rsatkichlari tizimini ishlab chiqish.....122





QUDRATOV ALISHER ALIJANOVICH, QODIRQULOVA SEVINCH TOIR QIZI

Qishloq xo'jaligida dukkakli mahsulotlarni yetishtirishda davlatning iqtisodiy tutgan o'rni.....133

IKROMOVA IRODA

Transport logistika korxonalari va koridorlari samaradorligini oshirishda milliy logistikani boshqarish markazi platformasi.....139

AXMADOVA IRODA MUZAFFAR KIZI

The economic role of professional tour guides in enhancing the quality of ecotourism services.....153

SODIQOVA NIGORA TURAYEVNA

Suv resurslari cheklangan sharoitda hududiy ixtisoslashuvni takomillashtirish bo'yicha xorijiy tajribalar va ulardan O'zbekiston sharoitida foydalanish.....165

АСРОРОВА МАВЛУДА АБДУШУКУРОВА

Кадровый потенциал в системе государственной научно-инновационной политики: сравнительный анализ опыта зарубежных стран.....175

KULIBOYEV AZAMAT SHONAZAROVICH

Davlat tibbiyot tashkilotlarida tibbiy xizmatlar kalkulyatsiyasini shakllantirish va xarajatlar hisobining uslubiy muammolari.....193

UMAROV JAVOHIR BAHODIR O'G'LI

Tovar operatsiyalari hisobini avtomatlashtirishda integratsiyalashgan axborot tizimlarining roli: jahon tajribasi misolida.....204

KADIROVA LAZOKAT YUREVNA

Davlat moliyaviy nazorati jarayonlarini sun'iy intellekt yordamida riskka yo'naltirilgan raqamli nazorat modeli asosida takomillashtirish.....212

BAXSHULLOYEV FERUZBEK

The economics of digital water management: a critical review.....226

TO'XTAYEV UMIDJON SHUHRAT O'G'LI

Xususiy tibbiy xizmatlar raqobatbardoshligini oshirish iqtisodiy mexanizmi amal qilish tamoyillari.....236

RAXIMOV ANVAR NORIMOVICH, MIRZAYOROVA HURIYAT

UBAYDULLAYEVNA
Qashqadaryo viloyatida qishloq xo'jaligi tadbirkorligi samaradorligidagi hududiy tafovutlarni baholash.....244

XURRAMOV XOLBEK XURRAM O'G'LI

O'zbekistonning janubiy hududlarida anorchilik tarmog'ining rivojlanish tendensiyalari.....251

ABDUSHEROZOVA MADINA SODIQJON QIZI

Agrologistika korxonalarini rivojlantirish va shartnomaviy munosabatlarni takomillashtirish.....258

ZARIKEYEVA MIYASAR MARATOVNA

Ekonometrik modellashtirishda endogenlik muammosi: nazariy yondashuvlar va zamonaviy baholash usullari.....264

KODIROVA GAVHAROI QUTBIDINOVNA

Sanoat korxonalarining tashkiliy va iqtisodiy xususiyatlari.....276





SANOAT KORXONALARINING TASHKILIY VA IQTISODIY XUSUSIYATLARI

KODIROVA GAVHAROIY QUTBIDINOVNA

Andijon davlat texnika instituti mustaqil tadqiqotchi

E-mail: gavharoy.kadirova@uzavtomotors.com

Annotatsiya. Maqolada sanoat korxonalari faoliyatining tashkiliy-iqtisodiy xususiyatlari tizimli yondashuv asosida tadqiq etilgan. Sanoat korxonasi faoliyatini tavsiflashda uning tashkiliy tuzilmasi, ishlab chiqarish ixtisoslashuvi, resurs salohiyati, ishlab chiqarish hajmi, moliyaviy natijalari, mehnat resurslaridan foydalanish samaradorligi va raqamlashtirish darajasini o'zaro bog'liq holda baholash zarurligi asoslangan. O'zbekiston sanoatining 2020–2025-yillardagi rivojlanish dinamikasi rasmiy statistik ma'lumotlar asosida tahlil qilinib, ishlab chiqarish sanoatining tarmoq tarkibidagi ustuvor o'rni aniqlangan. Korxona faoliyatining tashkiliy va iqtisodiy holatini kompleks baholash uchun tashkiliy, ishlab chiqarish-texnologik, moliyaviy-iqtisodiy, mehnat-kadrlar hamda raqamli rivojlanish ko'rsatkichlarini birlashtiruvchi yondashuv taklif etilgan. Tadqiqot natijalariga ko'ra, sanoat korxonasining iqtisodiy samaradorligi faqat ishlab chiqarish va moliyaviy natijalarga emas, balki boshqaruv tuzilmasi, inson kapitalidan foydalanish, innovatsiyalar hamda raqamli boshqaruv vositalarining integratsiyalashuv darajasiga ham bevosita bog'liq ekanligi asoslangan.

Kalit so'zlar: sanoat korxonasi, tashkiliy-iqtisodiy tavsif, ishlab chiqarish, iqtisodiy samaradorlik, boshqaruv tizimi, mehnat resurslari, inson kapitali, mehnat unumdorligi, rentabellik, raqamlashtirish.

Аннотация. В статье на основе системного подхода исследуются организационно-экономические характеристики промышленных предприятий. При описании деятельности промышленного предприятия учитывается необходимость оценки его организационной структуры, специализации производства, ресурсного потенциала, объёма производства, финансовых результатов, эффективности использования трудовых ресурсов и уровня цифровизации во взаимозависимом порядке. На основе официальных статистических данных анализируется динамика развития промышленности Узбекистана в 2020-2025 годах и определяется приоритетная роль обрабатывающей промышленности в отраслевой структуре. Для комплексной оценки организационно-экономического состояния деятельности предприятия предлагается подход, сочетающий организационные, производственно-технологические, финансово-экономические, трудо-человеческие и показатели цифрового развития. По результатам исследования, экономическая эффективность промышленного предприятия напрямую зависит не только от производственных и финансовых результатов, но и от уровня интеграции структуры управления, использования человеческого капитала, инноваций и цифровых инструментов управления.

Ключевые слова: промышленное предприятие, организационно-экономические характеристики, производство, экономическая эффективность, система управления, трудовые ресурсы, человеческий капитал, производительность труда, рентабельность, цифровизация.

Abstract. The article examines the organizational and economic characteristics of industrial enterprise operations based on a systems approach. It establishes the necessity of evaluating an industrial enterprise's activities by considering the interrelationships between its organizational structure, production specialization, resource potential, production volume, financial results, efficiency of labor resource utilization, and level of digitalization. Based on official statistical data, the development dynamics of Uzbekistan's industry from 2020 to 2025 are analyzed, identifying the priority role of the manufacturing sector within the industrial structure. An approach is proposed for the comprehensive assessment of an enterprise's organizational and economic status by integrating indicators related to organization, production technology, finance and economics, labor and personnel, and digital development. The study concludes that the economic efficiency of an industrial enterprise depends not only on production and financial outcomes but also directly on the management structure, utilization of human capital, innovation, and the level of integration of digital management tools.

Keywords: industrial enterprise, organizational-economic characteristics, production, economic efficiency, management system, labor resources, human capital, labor productivity, profitability, digitalization.





KIRISH

Zamonaviy iqtisodiyotda sanoat korxonalari mamlakatning ishlab chiqarish salohiyatini shakllantiruvchi, yangi ish o'rinlarini yaratuvchi, innovatsiyalarni amaliyotga tatbiq etuvchi hamda iqtisodiyotning boshqa tarmoqlarida multiplikativ ta'sir hosil qiluvchi asosiy xo'jalik subyektlaridan biri hisoblanadi. Ayniqsa, sanoat ishlab chiqarishining texnologik murakkablashuvi, bozorlardagi raqobatning kuchayishi, energiya va resurslar narxining o'zgaruvchanligi hamda raqamli texnologiyalarning ishlab chiqarish va boshqaruv jarayonlariga kirib kelishi korxonalar faoliyatini baholash mezonlarini sezilarli darajada kengaytirmoqda.

“O'zbekiston – 2030” strategiyasida [1, 2] mahalliy xomashyo bazasidan samarali foydalanish, ilg'or texnologiyalarga asoslangan sanoatni rivojlantirish, texnologik mahsulotlar ulushini oshirish, sanoatda qo'shilgan qiymat yaratishni ko'paytirish kabi vazifalar belgilangan. Jumladan, strategik ko'rsatkichlarda sanoatda texnologik mahsulotlar ulushini oshirish hamda sanoatning “drayver” yo'nalishlari salohiyatidan samarali foydalanishga alohida e'tibor qaratilgan.

Shu jihatdan sanoat korxonasi faoliyatiga tashkiliy-iqtisodiy tavsif berish oddiy statistik ma'lumotlarni bayon qilish bilan chegaralanmasligi lozim. Korxonaning ishlab chiqarish ko'lami, tashkiliy tuzilishi, boshqaruv darajalari, texnologik bazasi, aktivlari, moliyaviy natijalari, kadrlar salohiyati va raqamlashtirish holati yagona tizim elementlari sifatida o'rganilgandagina korxona rivojlanishining haqiqiy imkoniyatlari va muammoli jihatlarini aniqlash mumkin.

Mazkur tadqiqotning maqsadi sanoat korxonalari faoliyatining tashkiliy-iqtisodiy mazmunini aniqlashtirish, uni tavsiflovchi asosiy ko'rsatkichlarni tizimlashtirish hamda O'zbekiston sanoatining zamonaviy rivojlanish tendensiyalari asosida korxonalar faoliyatini kompleks baholash yondashuvini shakllantirishdan iborat.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Sanoat korxonalarini boshqarish masalalarini o'rganishga bag'ishlangan ilmiy tadqiqotlarda korxonaning iqtisodiy samaradorligi ishlab chiqarish resurslaridan oqilona foydalanish, tashkiliy tuzilmaning boshqaruv vazifalariga muvofiqligi, inson kapitalining sifati va innovatsion rivojlanish imkoniyatlari bilan bog'liq holda talqin etiladi.

M.G. Abdullaev [5] sanoat korxonalarida personalni boshqarishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini o'rganar ekan, korxona samaradorligini ta'minlashda inson resurslarini korxonaning umumiy boshqaruv tizimidan ajratib bo'lmazligini ta'kidlaydi. Muallifning yondashuvida personalni boshqarishning tashkiliy, iqtisodiy va motivatsion vositalari o'zaro bog'liq mexanizm sifatida qoraladi.

O. Popelo va O. Samoilovych [6] sanoat korxonalarining raqamli transformatsiyasini o'rganib, zamonaviy korxonaning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmi boshqaruv, moliyalashtirish hamda texnik qo'llab-quvvatlash





vositalarining integratsiyasiga asoslanishi lozimligini ko'rsatadi. Ularning fikricha, raqamlashtirish korxonaning faqat texnologik infratuzilmasini emas, balki resurslarni boshqarish, tashkiliy madaniyat va boshqaruv qarorlarini shakllantirish jarayonlarini ham o'zgartiradi.

Sanoat korxonalari boshqaruvida raqamli yetuklikni baholashga qaratilgan zamonaviy tadqiqotlarda ham korxonaning tashkiliy tuzilishi, iqtisodiy ko'rsatkichlari va raqamli rivojlanishi alohida emas, yagona boshqaruv konturi tarkibida ko'rib chiqilmoqda.

Mazkur qarashlarni umumlashtirish sanoat korxonasining tashkiliy-iqtisodiy tavsifini faqat moliyaviy hisobot ko'rsatkichlari asosida shakllantirish yetarli emasligini ko'rsatadi. Korxona faoliyati uning tashkiliy tuzilishi, ishlab chiqarish xususiyatlari, iqtisodiy salohiyati, inson resurslari va texnologik rivojlanish darajasi birligida baholanishi maqsadga muvofiq.

TADQIQOT USULLARI

Tadqiqotda tizimli yondashuv, statistik tahlil, qiyosiy tahlil, dinamik qatorlarni o'rganish, guruhlash, ilmiy abstraksiyalash va umumlashtirish usullaridan foydalanildi. Empirik ma'lumotlarning asosiy manbasi sifatida O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasining 2020–2025-yillardagi sanoat ishlab chiqarishiga oid rasmiy ma'lumotlari olindi [3, 4].

Tashkiliy-iqtisodiy tavsifni shakllantirishda korxona faoliyatini beshta o'zaro bog'liq yo'nalishda - tashkiliy, ishlab chiqarish-texnologik, moliyaviy-iqtisodiy, mehnat-kadrlar hamda raqamli-innovatsion jihatdan baholash yondashuvi qo'llanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Sanoat korxonasi murakkab ishlab chiqarish-iqtisodiy tizim bo'lib, unda moddiy, moliyaviy, mehnat, axborot va texnologik resurslar muayyan mahsulot ishlab chiqarish hamda iqtisodiy natijaga erishish uchun birlashtiriladi. Shu sababli uning tashkiliy-iqtisodiy tavsifi korxonaning ma'lum sanadagi holatini ifodalovchi oddiy "pasport" emas, balki resurslarning qanday tashkil etilgani va ulardan qay darajada samarali foydalanilayotganini aks ettiruvchi tahliliy tavsif bo'lishi kerak.

Avvalo, O'zbekistonda sanoat ishlab chiqarishining umumiy dinamikasiga e'tibor qaratish zarur. Rasmiy statistik ma'lumotlar sanoat ishlab chiqarishi hajmi so'nggi yillarda izchil ortib borayotganini ko'rsatadi.

1-jadval

O'zbekistonda sanoat ishlab chiqarishining asosiy ko'rsatkichlari

Yil	Sanoat mahsulotlari hajmi, trln.so'm	Fizik hajm indeksi, %
2020	368,7	100,9
2021	456,1	108,8
2022	553,3	105,3
2023	659,0	106,3
2024	885,8	106,8
2025	1 101,1	106,8

Manba: O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan [3].



Jadval ma'lumotlari sanoat ishlab chiqarishi nominal hajmining sezilarli kengayganligini ko'rsatadi. Biroq korxonalarning ishlab chiqarish faoliyatidagi real o'zgarishlarni baholashda nominal qiymat bilan bir qatorda fizik hajm indeksidan foydalanish muhim. 2025-yilda respublika sanoat korxonalari tomonidan 1 101,1 trln so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan va fizik hajm indeksi 106,8 foizni tashkil etgan. Demak, oldingi yilga nisbatan real sanoat ishlab chiqarishida 6,8 foizlik o'sish kuzatilgan.

Sanoat ishlab chiqarishining tarmoq tarkibi ham korxonalar faoliyatining tashkiliy-iqtisodiy sharoitlarini belgilashda muhim ahamiyatga ega.

2-jadval

2025-yilda O'zbekiston sanoat ishlab chiqarishining asosiy tarkibi

Sanoat yo'nalishi	Ishlab chiqarish hajmi, trln so'm	Jami sanoatdagi ulushi, %
Ishlab chiqarish sanoati	947,2	86,0
Tog'-kon va ochiq konlarni ishlash	77,0	7,0
Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash	70,8	6,4
Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya va chiqindilarni utilitatsiya qilish	6,1	0,6

Manba: Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlari [4].

Ko'rinib turibdiki, ishlab chiqarish sanoati respublika sanoat mahsulotlarining 86 foizini shakllantirmoqda. Bu holat ishlab chiqaruvchi korxonalarda resurslardan foydalanish, ishlab chiqarish jarayonlarini tashkil etish, texnologik modernizatsiya va inson kapitalini boshqarish masalalarining iqtisodiy ahamiyatini yanada oshiradi.

Sanoat korxonalarining son jihatdan tarkibi ham tarmoqning iqtisodiyotdagi salmog'ini tasdiqlaydi. 2025-yil 1-sentabr holatida O'zbekistonda faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning 12,7 foizi sanoat sohasiga to'g'ri kelgan. 2025-yil 1-dekabr holatida esa sanoat sohasida 59 325 ta korxona faoliyat yuritgan [4].

3-jadval

Sanoat korxonasi faoliyatining tashkiliy-iqtisodiy tavsifini shakllantiruvchi asosiy yo'nalishlar

Tahlil bloki	Asosiy tavsiflovchi ko'rsatkichlar	Tahliliy ahamiyati
Tashkiliy blok	tashkiliy-huquqiy shakl, mulkchilik shakli, boshqaruv tuzilmasi, boshqaruv darajalari, tarkibiy bo'linmalar	boshqaruvning murakkabligi va moslashuvchanligini aniqlaydi
Ishlab chiqarish-texnologik blok	mahsulot turlari, ishlab chiqarish quvvati, quvvatdan foydalanish, texnologiyalar, asosiy vositalar	ishlab chiqarish salohiyati va texnologik darajani tavsiflaydi
Moliyaviy-iqtisodiy blok	tushum, tannarx, foyda, rentabellik, aktivlar, asosiy va aylanma mablag'lar	korxonaning iqtisodiy barqarorligi va samaradorligini ko'rsatadi
Mehnat-kadrlar bloki	xodimlar soni, tarkibi, o'rtacha ish haqi, mehnat unumdorligi, qo'nimsizlik, malaka darajasi	inson resurslaridan foydalanish samaradorligini ifodalaydi
Raqamli-innovatsion blok	ERP, HRIS, MES, CRM, HR-analitika, avtomatlashtirish, raqamli investitsiyalar	boshqaruv va ishlab chiqarishning texnologik yetukligini ko'rsatadi



Biroq korxonaning tashkiliy-iqtisodiy holatini aniqlashda makroiqtisodiy tendensiyalar korxona darajasidagi ko'rsatkichlar bilan to'ldirilishi lozim. Bizningcha, bunday tavsif quyidagi mantiqiy tuzilishga ega bo'lishi kerak.

Taklif etilayotgan yondashuvning muhim jihati shundaki, iqtisodiy natijalar tashkiliy sharoitlardan ajratilgan holda baholanmaydi. Masalan, sotish hajmining oshishi ijobiy natija sifatida qabul qilinishi mumkin, biroq bu o'sish ishchi kuchi sonining haddan tashqari ko'payishi yoki ishlab chiqarish xarajatlarining keskin ortishi hisobiga yuz bergan bo'lsa, korxona samaradorligining haqiqiy oshganligini anglatmasligi mumkin.

Shu sababli sanoat korxonasining iqtisodiy holatini tahlil qilishda bir qator nisbiy samaradorlik ko'rsatkichlaridan foydalanish maqsadga muvofiq.

Mehnat unumdorligini quyidagicha ifodalash mumkin:

$$MU = \frac{Q}{N}$$

bu yerda

Q — ishlab chiqarilgan yoki sotilgan mahsulot hajmi;

N — xodimlarning o'rtacha yillik soni.

Mazkur ko'rsatkich bir xodimga to'g'ri keladigan mahsulot hajmini aks ettirib, korxonaning ishlab chiqarish natijalari bilan personal salohiyati o'rtasidagi bog'liqlikni aniqlash imkonini beradi.

Mahsulot rentabelligi:

$$R = \frac{F}{T} * 100$$

bu yerda

F — foyda;

T — mahsulot tannarxi.

Asosiy vositalardan foydalanish samaradorligini ifodalash uchun fond qaytimi ko'rsatkichi:

$$FQ = \frac{Q}{\overline{AV}}$$

bu yerda $\overline{AV}$ - asosiy vositalarning o'rtacha yillik qiymati.

Personalni boshqarish nuqtayi nazaridan esa xodimlar qo'nimsizligi koeffitsiyenti alohida ahamiyatga ega:

$$K_q = \frac{N_q}{N} \times 100,$$

bu yerda

N_q — tahlil davrida turli sabablarga ko'ra korxonani tark etgan xodimlar soni.

Bu ko'rsatkichlarni birgalikda tahlil qilish korxonaning moliyaviy natijalari qanday ishlab chiqarish, kapital va mehnat resurslari hisobiga shakllanayotganligini aniqlash imkonini beradi.

Ayniqsa, sanoat korxonasi faoliyatini personalni boshqarish muammolari nuqtayi nazaridan tadqiq etishda iqtisodiy ko'rsatkichlarni kadrlar ko'rsatkichlaridan ajratish metodologik jihatdan to'g'ri emas. Korxonada yangi





uskunalarning joriy qilinishi xodimlarning malakasiga bo'lgan talabni o'zgartiradi; ishlab chiqarish hajmining oshishi ishchi kuchiga ehtiyojni kuchaytiradi; mehnat unumdorligining o'sishi esa motivatsiya, malaka, texnologiyalar va mehnatni tashkil etish holatiga bog'liq bo'ladi.

Shuningdek, korxonalarda raqamli texnologiyalarning joriy etilishi tashkiliy-iqtisodiy tavsif mazmunini kengaytirmoqda. "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasi iqtisodiyot tarmoqlarida raqamli transformatsiyani davlat siyosatining muhim yo'nalishlaridan biri sifatida belgilagan. Korxona darajasida ERP, MES, HRIS, ATS, LMS, biznes-analitika va boshqa axborot tizimlarining qo'llanilishi ma'lumotlarni qayta ishlash tezligi, boshqaruv qarorlarining asoslanganligi va resurslar ustidan nazoratni kuchaytirishga imkon beradi.

Shu sababli bugungi sharoitda sanoat korxonasining tashkiliy-iqtisodiy tavsifiga raqamli yetuklik ko'rsatkichlarini kiritish zarur. Chunki bir xil ishlab chiqarish quvvatiga, xodimlar soniga yoki aktivlarga ega bo'lgan ikki korxonaning boshqaruv samaradorligi ularda ma'lumotlar almashinuvi, jarayonlarni avtomatlashtirish, analitik vositalardan foydalanish va raqamli kompetensiyalar darajasiga qarab keskin farqlanishi mumkin.

Bundan tashqari, iqtisodiy natijalarning barqarorligi personal tarkibining sifat xususiyatlariga ham bog'liq. Yuqori texnologiyali ishlab chiqarishga o'tish sharoitida xodimlarning faqat soni emas, balki ularning kasbiy-malakaviy tarkibi, raqamli kompetensiyasi, o'qitish va qayta tayyorlash bilan qamrab olinishi ham iqtisodiy tahlilning muhim obyekti bo'lib bormoqda. Shu ma'noda personal korxonaning xarajat elementi sifatida emas, balki ishlab chiqarish va innovatsion salohiyatni shakllantiruvchi inson kapitali sifatida baholanishi maqsadga muvofiq.

Demak, sanoat korxonasining tashkiliy-iqtisodiy tavsifi, bir tomondan, uning mavjud salohiyatini ko'rsatsa, ikkinchi tomondan, keyingi bosqichda boshqaruv tizimining samaradorligini aniqlash uchun boshlang'ich diagnostik baza vazifasini bajaradi. Aynan shu sababli korxona faoliyatini o'rganishda "korxona qancha mahsulot ishlab chiqardi?" degan savol bilan cheklanmasdan, "ushbu natija qanday tashkiliy tuzilma, qanday texnologiya, qanday kapital va qanday inson resurslari hisobiga yaratildi?" degan savolga javob berish talab etiladi.

XULOSA

O'tkazilgan tadqiqot sanoat korxonalari faoliyatining tashkiliy-iqtisodiy tavsifi kompleks xarakterga ega ekanligini ko'rsatdi. Korxonaning iqtisodiy holatini faqat ishlab chiqarish hajmi, tushum, foyda yoki rentabellik ko'rsatkichlari orqali baholash uning rivojlanish imkoniyatlari haqida to'liq tasavvur bermaydi. Mazkur ko'rsatkichlar tashkiliy tuzilma, ishlab chiqarish texnologiyasi, asosiy vositalarning holati, mehnat resurslari va boshqaruvning raqamlashtirish darajasi bilan o'zaro bog'liq holda tahlil qilinishi lozim.

O'zbekistonda sanoat ishlab chiqarishining 2020–2025-yillardagi dinamikasi tarmoqning barqaror rivojlanib borayotganligini ko'rsatmoqda. 2025-yilda sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmining 1 101,1 trln so'mga





yetgani va fizik hajm indeksining 106,8 foizni tashkil etgani ushbu sohada ishlab chiqarish ko'lamining kengayib borayotganligini tasdiqlaydi. Bunda ishlab chiqarish sanoatining jami sanoat hajmidagi 86 foizlik ulushi korxonalar faoliyati samaradorligini oshirish masalasining alohida iqtisodiy ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatadi.

Tadqiqot asosida sanoat korxonasi faoliyatining tashkiliy-iqtisodiy tavsifini tashkiliy, ishlab chiqarish-texnologik, moliyaviy-iqtisodiy, mehnat-kadrlar hamda raqamli-innovatsion bloklar birligi asosida shakllantirish maqsadga muvofiq degan xulosaga kelindi. Mazkur yondashuv korxonaning mavjud holatini kompleks diagnostika qilish bilan birga, personalni boshqarish tizimidagi muammolarni aniqlash, inson kapitalidan foydalanish samaradorligini baholash va uni takomillashtirish yo'nalishlarini asoslash uchun ham metodik asos yaratadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-son "O'zbekiston – 2030" strategiyasi to'g'risidagi Farmoni.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktabrdagi PF-6079-son "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risidagi Farmoni.
3. O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi. O'zbekiston Respublikasining sanoat ishlab chiqarishi. 2024-yil yanvar–dekabr.
4. O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi. O'zbekiston Respublikasida sanoat ishlab chiqarishi. 2025-yil yanvar–dekabr. Toshkent, 2026.
5. Abdullaev M.G. Improving the Organizational and Economic Mechanism of Personnel Management in Industrial Enterprises. Pioneering Studies and Theories. 2025. Vol. 1, No. 4. P. 110–118.
6. Popelo O., Samoilovych O. Organizational and Economic Mechanism of Digital Transformation of Industrial Enterprises. Scientific Bulletin of Polissia. 2024. No. 2(29). P. 159–175. DOI: 10.25140/2410-9576-2024-2(29)-159-175.
7. Ding H. Development of an Organizational and Economic Mechanism for Managing the Digital Maturity of an Industrial Enterprise. Progressive Economy. 2026. No. 1. P. 29–44. DOI: 10.54861/27131211_2026_1_29.
8. OECD. OECD Digital Economy Outlook 2024. Paris: OECD Publishing, 2024.
9. Kagermann H., Wahlster W., Helbig J. Recommendations for Implementing the Strategic Initiative INDUSTRIE 4.0. Frankfurt/Main: acatech, 2013.
10. Porter M.E., Heppelmann J.E. How Smart, Connected Products Are Transforming Competition. Harvard Business Review. 2014. Vol. 92, No. 11. P. 64–88.



Mas'ul muharrir: Beglayev Uchqun

Musahhih: Boltayev Nurali

Sahifalovchi va dizaynerlar: Normurodov Sarvar,
Sharipov Shoxruh

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Agrobiznes, fan va texnologiyalar" ilmiy-amaliy elektron jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar mas'ul hisoblanadi. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelavermasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga murojaat qilish mumkin. Ilmiy maqolalar, reklama, hikoya va boshqa ilmiy-ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin. Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

Elektron pochta: licht-1989@mail.ru

Jurnalning telegram manzili: t.me/agrobiznes_elektronjournal

Telefon raqami: +998939018320, +998934393000

Jurnal rasmiy sayti: <https://www.agrobiznesjournal.uz>

"Agrobiznes, fan va texnologiyalar" ilmiy-amaliy elektron jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 30.11.2024-yildagi №364/5-sonli qarori bilan 08.00.00-Iqtisodiyot fanlari bo'yicha, 08.05.2025-yildagi №370/5-sonli qarori bilan 06.00.00-Qishloq xo'jaligi fanlari bo'yicha "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga kiritilgan.



"Agrobiznes, fan va texnologiyalar" ilmiy-amaliy elektron jurnali 2023-yil 23-maydan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan C-5669225 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №083688

Manzilimiz: Toshkent viloyati, Qibray tumani,
Universitet ko'chasi, 2-uy